



AGRAR SEKTORNING IQTISODIY RIVOJLANISHINING STATISTIK TAHLILI

PhD Zakirova Umida

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

ORCID: 0009-0006-4563-675X

umida123655@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi sohasida 2020-2024-yillar mobaynida kuzatilgan dinamik o'zgarishlar, ulardagi ayrim qonuniyatlar va ularning kelgusi davrlar uchun prognoz ko'rsatkichlarga ta'siri statistik ma'lumotlar asosida yoritib beriladi. Agrar tarmoqqa oid rasmiy statistik ma'lumotlar asosida qishloq xo'jaligida yuz berayotgan modernizatsiyalash jarayonlari natijasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda kuzatilayotgan o'zgarishlar va ularning aholi farovonligiga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, YaIM, agrar tarmoq, agrar sohalar, qishloq xo'jaligidagi tarkibiy o'zgarishlar tahlili, qishloq xo'jaligida raqamlashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti, fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, suv resurslarini boshqarish, mahsulot diversifikatsiyasi, zamonaviy texnologiyalar, qishloq xo'jaligi samaradorligi.

СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО СЕКТОРА

PhD Закирова Умида

Узбекский государственный университет физической культуры и спорта

Аннотация. В данной статье на основе статистических данных будут освещены динамические изменения, наблюдаемые в сельскохозяйственном секторе Республики Узбекистан в течение 2020-2024 годов, отдельные закономерности в них и их влияние на прогнозные показатели на предстоящие периоды. На основе официальных статистических данных, относящихся к аграрному сектору, анализируются наблюдаемые изменения макроэкономических показателей в результате происходящих в сельском хозяйстве процессов модернизации и их влияние на благосостояние населения.

Ключевые слова: макроэкономические показатели, ВВП, аграрный сектор, аграрные отрасли, анализ структурных изменений в сельском хозяйстве, цифровизация сельского хозяйства, экспорт сельскохозяйственной продукции, развитие сельского хозяйства, управление водными ресурсами, диверсификация продукции, современные технологии, эффективность сельского хозяйства.

STATISTICAL ANALYSIS OF ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE AGRICULTURAL SECTOR

PhD **Zakirova Umida**

Uzbek State University of Physical Culture and Sports

Abstract. Based on statistical data, this article will highlight the dynamic changes observed in the agricultural sector of the Republic of Uzbekistan during 2020-2024, individual patterns in them and their impact on forecast indicators for the coming periods. Based on official statistics related to the agricultural sector, the observed changes in macroeconomic indicators as a result of modernization processes in agriculture and their impact on the well-being of the population are analyzed.

Keywords: macroeconomic indicators, GDP, agricultural sector, agricultural industries, analysis of structural changes in agriculture, digitalization of agriculture, export of agricultural products, agricultural development, water resources management, product diversification, modern technologies, agricultural efficiency.

Kirish.

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohot natijalari statistik raqamlarda va ma'lumotlarda o'z aksini topadi. Shuning uchun qishloq xo'jaligi sohasi bo'yicha ishonchli va tezkor statistik ma'lumotlarni shakllantirish hamda statistik ko'rsatkichlar ko'lamini kengaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi sektori mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, aholining ko'pchilik qismi bandligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan tarkibiy va tuzilmaviy o'zgarishlar orqali sohani rivojlantirish, raqobatbardosh mahsulotlarni ko'paytirish va eksport salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Keyingi yillarda davlat tomonidan qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, resurslarni samarali boshqarish masalalariga ustuvorlik berilayotgani kuzatilmoqda.

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida qishloq xo'jaligi o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, dehqonchilik va chorvachilik sohalari aholi daromadlarini shakllantirish hamda turmush faravonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Tarmoq rivojining uzoq tarixi, mahsulot etishtirish bilan bog'liq boy tajribasi, mavjud iqlimning soha rivojini ta'minlashda ustunligi, geografik joylashuv kabilar qishloq xo'jaligini rivojlantirishni istiqbolli sohalardan biri sifatida shakllantirish lozimligini asoslaydi. Boshqa tomondan qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoni ko'p asrlik rivojlanish tendentsiyasiga ega bo'lib, unga ko'pgina omillar (aholi sonining o'sishi, ilm-fan rivoji, texnika va texnologiyalarning yaratilishi va rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy voqe'liklar va boshqalar) ta'sirida bugungi kun holatiga etib kelgan va sohani rivojlantirish o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Natijada, mamlakatda yalpi qo'shilgan qiymatning 26%ga yaqini qishloq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 - son Farmonida keltirilgan maqsadlaridan biri tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish hamda Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish (Farmon, 2022).

Yurtboshimizning "Raqamli O'zbekiston - 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida 2 "gi Farmoni bilan agrosanoatni rivojlantirishga qaratilgan bir necha o'nlab loyihalarni amalga oshirish belgilangan. Shu asosda raqamlashtirish bo'yicha qo'yilgan vazifa va topshiriqlarni jadal suratlarda olib borishda yetakchi xorijiy

tajribani o'rganish, jumladan, Yevropa Ittifoqi va Jahon Bankining maslahat va moliyaviy qo'llab-quvvatlashidan, eng yaxshi texnik yechimlardan foydalanilmoqda. Ma'lumki, ohirgi 15 yil ichida O'zbekiston aholisi 27 milliondan deyarli 40 millionga yetdi, har bir kishi uchun ajratilgan yer maydoni esa 23 sotixdan 16 sotixga kamaydi (Farmon, 2020).

Qishloq xo'jaligi tarmog'i Respublikamizning milliy mahsulot ishlab chiqarish sohasidagi asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanib, o'zining qo'shimcha qiymat yaratishi, aholi ehtiyojini qondirishdagi o'rni va yuqori darajaga ega bo'lgan ishlab chiqarish bilan boshqa soha va tarmoqlardan afzalligi bilan tubdan farq qiladi. Bugungi kunda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida respublika yalpi ichki mahsulotining 25 %, oziq-ovqat mahsulotlarining 90 % dan ziyodi yaratilmoqda. Agrar soha mamlakatimizning yetakchi sohalaridan biri sifatida nafaqat aholini oziq-ovqat mahsulotlari hamda sanoatni esa xom-ashyo bilan ta'minlashda, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishda ham muhim o'rin egallaydi (Berdiqulov, 2023).

Hozirgi kunda Respublikamiz qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ko'plab turlarini yetishtirish, ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash hamda eksport salohiyatini oshirish borasida katta imkoniyatga ega. Lekin, bu imkoniyatlardan hozircha yetarlicha foydalanilayotgani yo'q. Mamlakat eksport salohiyatining yuksalishida qishloq xo'jaligi muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston joriy yilda xorijiy davlatlarga Davlat statistika qo'mitasi dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida xorijga qiymati 1,0 mlrd. AQSH dollari qiymatidagi 1,6 mln. tonna meva va sabzavotlar eksport qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 168,3 ming tonnaga oshgan (Abdiraayimov, 2023).

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi tarmog'idagi tarkibiy va tuzilmaviy o'zgarishlar bo'yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar, so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi sektorini rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli strategiyalar, iqtisodiy islohotlar va ularning natijalarini o'rganishga qaratilgan. Ayniqsa, 2023-yilgi adabiyotlar va ilmiy manbalar ushbu sohadagi tub o'zgarishlarni hamda bu o'zgarishlarning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Safarova va Mirzayev (2023) tomonidan *Central Asian Economic Review* jurnalida "*O'zbekistonda kichik fermer xo'jaliklarida raqamli islohotlarning ta'siri*" mavzusidagi 2023-yilda nashr etilgan maqola kichik fermer xo'jaliklaridagi raqamlashtirish jarayonining samaradorlik, ishlab chiqarish va xarajatlar samaradorligiga ta'sirini o'rganadi. Mualliflar kichik fermerlar orasida texnologiya qabul qilish darajasi 15% ga oshganini va bu jarayonni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi rag'batlantiruvchi chora-tadbirlarning roli katta ekanligini ta'kidlaydilar.

Xo'jayev va Umarova (2023) "*O'zbekistonda qishloq xo'jaligini raqamlashtirishning iqtisodiy foydalari bahosi*" mazmunsida 2023-yilda *Asian Journal of Agricultural Economics* jurnalida chop etilgan tadqiqotda O'zbekiston qishloq xo'jaligi sektorida raqamli texnologiyalarning iqtisodiy ta'sirini tahlil qilishadi. Ular sun'iy yo'ldosh asosida ekinlarni kuzatish va elektron savdo platformalari kabi raqamli vositalarni o'rganib, raqamli integratsiya qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsulotini kelgusi besh yilda 10% ga oshirishi mumkinligini xulosa qilganlar.

Sobirova va Ergashev (2023) "*O'zbekistonda raqamli qishloq xo'jaligi texnologiyalarini joriy etish: Taraqqiyot va siyosiy tavsiyalar*" nomli ilmiy ishi qishloq xo'jaligini raqamlashtirish jarayonini tezlashtirish uchun zarur bo'lgan siyosat masalalariga bag'ishlangan. Mualliflar raqamli infratuzilma va qishloq xo'jaligi xodimlarini o'qitish bo'yicha takliflarni ilgari surgan va ushbu tadbirlarning raqamli qishloq xo'jaligidan to'liq foydalanish uchun muhimligini ta'kidlaganlar.

Qishloq xo'jaligi sanoatini raqamlashtirish samaradorligini nafaqat vositachilar, balki oxirgi xaridorlar bilan ham bitimlar tuziladigan agrosanoat majmuasi tovarlarini sotish uchun elektron platforma yaratish orqali oshirish mumkin. Raqamli iqtisodiyot elementlari yerlarni,

ekinlarni monitoring qilish, ishlab chiqaruvchi va xaridor o'rtasidagi hisob-kitoblarni optimallashtirish, investitsiya va kredit tizimini ratsionalizatsiya qilish, ijtimoiy sug'urta uchun ishlatilishi mumkin. Raqamlashtirish marketing usullaridan faol foydalanishni, monopoliyaga qarshi turishni, iqtisodiyotning barcha ishtirokchilari o'rtasida elektron o'zaro ta'sir o'tkazish uchun sharoit yaratishni ta'minlaydi. Agrosanoat majmuasining raqamli platformalari. Texnologik raqamli platformalar innovatsion infratuzilmaning elementlari hisoblanadi. Ularning maqsadi tezkor va samarali aloqani ta'minlash, fermerlarning boshqa manfaatdor tomonlar bilan bevosita o'zaro munosabatlarini rag'batlantirish deya fikr bildirgan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2028-yilga borib qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga yo'naltirilgan global xarajatlarning 3 barobarga oshishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkich 16,4 milliard AQSh dollariga teng bo'lishi prognoz qilinmoqda. Jumladan, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) va ob'ektlar interneti (IoT) texnologiyalariga qaratilgan investitsiyalar sezilarli darajada oshib, 2021-yildagi 1 milliard AQSh dollardan 2028-yilga kelib 5 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. Ushbu o'sish tendensiyasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish va boshqarishda raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali hosildorlikni oshirish, resurslarni tejash va ekologik barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi (Ermonov, 2023).

Ismatov va Rahimovalar tomonidan "O'zbekiston qishloq xo'jaligi qiymat zanjirini kuchaytirishda raqamlashtirishning roli" nomli maqolasi *Agricultural Policy and Management Review* jurnalida 2023-yilda chop etilgan. Bu tadqiqotda Ismatov va Rahimova ishlab chiqarishdan tortib to bozorgacha bo'lgan qishloq xo'jaligi qiymat zanjirini yaxshilashdagi raqamli texnologiyalarning rolini o'rganishgan. Mualliflar elektron tijorat platformalari, izchillik uchun blokcheyn texnologiyasi va mobil maslahatchilik xizmatlari orqali fermerlarning tranzaksiya xarajatlarini taxminan 12% ga kamaytirishga erishilganini ta'kidlashgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning maqsadi bo'lib, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ulardagi tarkibiy o'zgarishlarni baholash, istiqboldagi yo'nalishlarini belgilash bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, respublikamizda agrar sektorning rivojlanish jarayonlari, ulardagi tarkibiy va tuzilmaviy o'zgarishlarni kompleks statistik tahlilini amalga oshirish va samaradorligini baholash natijasida istiqbol uchun muqobil bo'lgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish va asosiy yo'nalishlarini belgilash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar, vaqt qatorlari, iqtisodiy indekslar, statistik jadval va grafiklar kabi usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ushbu bo'limda O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'ida amalga oshirilayotgan tarkibiy va tuzilmaviy o'zgarishlarni statistik tahlil qilish natijalari taqdim etiladi.

Asosiy maqsad – qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish hajmlari, hosildorlik darajalari, eksport imkoniyatlari va iqtisodiy samaradorlik kabi ko'rsatkichlarni aniqlash orqali sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalarini baholashdir.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasining asosiy maqsadi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlat siyosatini tubdan takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, quyidagi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi:

- aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash;
- qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish;

- soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash;
- davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish;
- tarmoqni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish;
- qishloq xo'jaligida ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish;
- qishloq hududlarini rivojlantirish;
- tarmoq statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqish (Farmon, 2019).

2024 yil 1 aprel holatiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) soni – 34 165 birlikni, shundan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarida ko'rsatilgan xizmatlarda – 31 366 birlikni, o'rmon xo'jaligida – 249 birlikni hamda baliqchilik xo'jaligida – 2 550 birlikni tashkil etdi.

Dastlabki tahlillar turli hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklari unumdorligidagi sezilarli farqlarni aniqlaydi. Quyidagi jadvalda kichik, o'rta va yirik fermer xo'jaliklari uchun o'rtacha hosildorlik va chorvachilik mahsuldorligi ko'rsatilgan (1-jadval).

1-jadval


Kichik, o'rta va yirik fermer xo'jaliklari uchun o'rtacha hosildorlik va chorvachilik mahsuldorligi

Fermer xo'jaligi hajmi	O'rtacha hosildorlik (ton/ga)	Chorvachilik mahsuldorligi (birlik/yil)
Kichik	4,5	120
O'rta	5,2	145
Katta	6,5	180

Ta'riflovchi statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, yirik fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi va chorvachilik mahsuldorligi bo'yicha doimiy ravishda kichik fermer xo'jaliklaridan ustun turadi. Yirik fermer xo'jaliklari kichik va o'rta fermer xo'jaliklariga nisbatan o'rtacha 25%ga yuqori hosildorlikni qayd etdi, bu esa fermer xo'jaliklari hajmi va hosildorlik o'rtasidagi kuchli bog'liqlikdan dalolat beradi. Kichik va o'rta fermer xo'jaliklari resurslarni yaxshiroq taqsimlash (masalan, suv va o'g'itlar) kabi samaraliroq amaliyotlarni qo'llashni ko'rib chiqishlari va resurslar va texnologiya investitsiyalarini birlashtirish uchun hamkorlik imkoniyatlarini o'rganishlari kerak. Yirik fermer xo'jaliklari samaraliroq bo'lsa-da, aniq qishloq xo'jaligi va mehnatni yaxshiroq boshqarish orqali yanada optimallashtirish qo'shimcha foyda keltirishi mumkin.

So'nggi yillarda mamlakatimizda qishloq xo'jaligi tarmog'i sezilarli darajada o'sib kelmoqda. Buni qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining yillik o'sish sur'atlaridan ko'rishimiz mumkin(1-rasm)

1-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, 2019 yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining yillik o'sish sur'atlari 103,1 % ni tashkil qilgan. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari 2019-yilda o'sish ko'rsatgan. 2020 yilda esa bu 102,9 %ni tashkil qilgan va bu yili ko'rsatkich biroz pasaygan (103,1 dan 102,9 ga). 2021-yilda bu ko'rsatkich 104%ni tashkil qilgan bo'lib, ko'rsatkich yana o'sishga o'tgan va 2019-yildagi darajadan yuqoriroq ko'rsatkichga erishilgan. 2022-yilda esa 103,6 ni tashkil qilgan va o'sish biroz sekinlashgan va ko'rsatkich 104 dan 103,6 ga tushganligini kuzatishimiz mumkin. 2023-yilda esa o'sish 104,1%ni tashkil qilgan va bu ko'rsatkich yana o'sgan va butun davr uchun eng yuqori darajaga yetgan. Bu sohada barqaror o'sish tendensiyasi mavjudligini ko'rsatadi.



1-rasm. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining o'sish sur'atlari (yillik)

Manba: stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

2019-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda agrar tarmoq mahsulotlari o'sish tendensiyasini namoyon qilgan. Ayrim yillarda biroz pasayish kuzatilgan bo'lsa ham, umumiy o'sish davom etgan. 2023-yilda eng yuqori ko'rsatkichga erishilgan, bu sohaga e'tibor qaratish va uni rivojlantirish muhimligini ko'rsatadi. Qo'shimcha ma'lumotlar bilan har bir yildagi o'zgarishlarning sabablarini aniqlash mumkin bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi tarmog'idagi tarkibiy va tuzilmaviy o'zgarishlarni statistik tahlil qilish natijasida qator muhim xulosalarga keldik. So'nggi yillarda sektor samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan islohotlar, raqamlashtirish jarayonlari va davlat tomonidan berilayotgan moliyaviy yordamlar qishloq xo'jaligida sezilarli o'sishni ta'minlaganini ko'rish mumkin. Bularning barchasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Birinchidan, qishloq xo'jaligida mahsulot hajmining barqaror o'sishi va hosildorlik darajasining oshgani sektorda olib borilayotgan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va yangi agronomik usullarning qo'llanilishi bilan bevosita bog'liq. Ushbu jarayonni davom ettirish orqali mahalliy fermer xo'jaliklarining samaradorligi va hosildorligi yanada oshadi. Shuningdek, mahsulotlar diversifikatsiyasi xalqaro bozorlarga chiqishda keng imkoniyatlar yaratmoqda va O'zbekistonning qishloq xo'jaligida yuqori daromad keltiruvchi mahsulotlarni yetishtirish salohiyati ortib bormoqda.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligida raqamlashtirish va suv tejovchi texnologiyalarning joriy etilishi resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratmoqda. Xususan, sun'iy yo'ldosh monitoringi, smart-sug'orish tizimlari va boshqa raqamli texnologiyalar tuproq unumdorligini oshirish, suvni tejash va umumiy samaradorlikni yaxshilashda katta natijalarga erishmoqda. Suv resurslarini tejash bo'yicha davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari ham bu yo'nalishda muhim rol o'ynaydi va ularni yanada kengaytirish zarur.

Uchinchidan, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro bozor talablariga mos mahsulot yetishtirish uchun davlat tomonidan qo'shimcha chora-tadbirlarni kuchaytirish lozim. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishda xalqaro sifat standartlari va sertifikatlash talablari bajarilishi O'zbekiston mahsulotlariga nisbatan ishonchni oshirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va yangi eksport bozorlarini izlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi lozim.

Takliflar:

1. **Raqamli texnologiyalarni kengroq joriy etish:** Qishloq xo'jaligida raqamli va smart texnologiyalarni qo'llashni yanada kengaytirish uchun qo'shimcha dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Bu maqsadda davlat va xususiy sektor hamkorligi orqali fermer xo'jaliklariga arzon va sifatli texnologik yechimlar taklif qilish tavsiya etiladi.

2. **Suv resurslarini boshqarish va tejash dasturlari:** Suvdan foydalanishni optimallashtirish bo'yicha maxsus dasturlarni kengaytirish va ushbu texnologiyalarga subsidiyalar ajratishni davom ettirish kerak. Bunday choralar suv tanqisligi muammosini hal qilishda katta yordam beradi va kelgusida resurslarning iqtisodiy jihatdan tejalishiga hissa qo'shadi.

3. **Eksportni qo'llab-quvvatlash siyosatini kuchaytirish:** Mahalliy mahsulotlarning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish uchun sifatni nazorat qilish tizimlarini kuchaytirish, xalqaro standartlar bo'yicha o'quv dasturlarini kengaytirish va sertifikatlashtirish xizmatlariga qo'shimcha imtiyozlar yaratish lozim. Bu O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirishga imkon beradi.

4. **Kichik fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash:** Kichik va o'rta fermer xo'jaliklariga moliyaviy yordam ko'rsatish, ularni kreditlash va imtiyozli qarzlar ajratishni davom ettirish orqali sektorning barqaror rivojlanishini ta'minlash zarur. Bu qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga hissa qo'shadi.

5. **Mahsulot diversifikatsiyasi va yangi bozorlarga chiqish:** Qishloq xo'jaligida faqat an'anaviy ekinlarga bog'lanib qolmaslik, balki yuqori daromad keltiruvchi yangi ekin turlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash kerak. Bu eksportda yangi yo'nalishlarni ochib, iqtisodiyotga qo'shimcha daromad keltirishi mumkin.

Ushbu xulosa va takliflar O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'ida olib borilayotgan tarkibiy-tuzilmaviy o'zgarishlar samaradorligini oshirishga ko'maklashadi va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda eksport salohiyatini oshirish yo'lidagi maqsadlarga erishishga zamin yaratadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Abdirayimov A.R. (2023) Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport salohiyatini oshirishda vujudga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari. *Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 1 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1.*

Axmedov N., Alimov Sh. va Tursunova F. (2023) "O'zbekistonda qishloq xo'jaligida raqamli transformatsiya: Barqaror rivojlanish uchun muammolar va imkoniyatlar". *The Journal of Agricultural Innovation and Development.*

Berdiqulov Q.G'. (2023) O'zbekiston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining rivojlanish holati va uning tendentsiyalaridagi o'zgarishlarni statistik baholash. "O'zbekiston statistika axborotnomasi" ilmiy-elektron jurnal /1(15) 107 www.statmirror.uz.

Ermonov F.F. (2025) Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari. "O'zbekiston statistika axborotnomasi" ilmiy-elektron jurnali /1-son 1 www.statmirror.uz

Farmon (2019) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF- 5853- sonli Farmoni. www.lex.uz

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60 sonli Farmoni. www.lex.uz

Farmon (2024) O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibining takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni, 09.10.2024 yildagi O'RQ-973-son.

Qaror (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 07.06.2022 yildagi PQ-273-son.

Qonun (2004) "O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni. 2004 yil 26 avgust, 662-II-son. www.lex.uz

Qonun (2021) O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni. 2021 yil 1 aprelda qabul qilingan. www.lex.uz

Safarova G. va Mirzayev R. (2023) "O'zbekistonda kichik fermer xo'jaliklarida raqamli islohotlarning ta'siri". *Central Asian Economic Review*.

Sobirova D. va Ergashev A. (2023) "O'zbekistonda raqamli qishloq xo'jaligi texnologiyalarini joriy etish: Taraqqiyot va siyosiy tavsiyalar". *Uzbekistan Economic and Agricultural Studies Journal*.

Xo'jayev Sh. va Umarova N. (2023) "O'zbekistonda qishloq xo'jaligini raqamlashtirishning iqtisodiy foydalari bahosi". *Asian Journal of Agricultural Economics*.